BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyyev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIYAVIY HIMOYA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIYAVIY HIMOYA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

G'aniyeva Nozima Alijon qizi

NamDTU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası assistenti

Email: nozimaganieva40@gmail.com

ORCID: 0009-0009-7587-1197

Annotatsiya. Maqolada sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida shakllanganligi hamda uning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sug'urta bozori, sug'urta mukofoti, sug'urta qoplamalari, sug'urta brokerlari, sug'urta aktuariylari, sug'urta agenti.

Abstract. The article highlights that insurance activity has emerged as an essential mechanism for protecting the interests of individuals and legal entities and for compensating potential losses arising from the occurrence of risks. The main development trends of the insurance sector are examined.

Key words: insurance market, insurance premium, insurance payouts, insurance brokers, insurance actuaries, insurance agent.

Аннотация. В статье раскрывается, что страховая деятельность сформировалась как необходимый инструмент для защиты интересов физических и юридических лиц, а также для компенсации возможного ущерба, возникающего в результате наступления рисков. Освещены основные тенденции развития страхового сектора.

Ключевые слова: страховой рынок, страховая премия, страховые возмещения, страховые брокеры, страховые актуарии, страховой агент.

KIRISH

Bozor munosabatlarining takomillashuvi iqtisodiy infratuzilmaning qaror topishi bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan ijtimoiy kafolatni ta'minlasi, ikkinchi tomondan shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot subyektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida shakllandi hamda rivojlandi. Shunday anglangan zarurat — aniq sug'urta manfaatlari negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy himoya xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar asosan moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, sug'urta mexanizmlari, kredit kafolatlari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligini baholashga qaratilgan. Joseph Stiglitz va Andrew Weiss kredit bozorlari samaradorligining pasayishiga olib keluvchi axborot nomutanosibligi muammolarini batafsil tahlil qilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali kredit xavfini pasaytirish zarurligini ko'rsatadi. Ularning yondashuviga ko'ra, kafolat fondlari, sug'urta mexanizmlari va risklarni qayta taqsimlovchi institutsional strukturalar kichik biznesning moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Ross Levine moliya tizimi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur o'rgangan holda, moliyaviy vositachilar tomonidan risk diversifikatsiyasi va kafolat mexanizmlarining rivojlanishi tadbirkorlikning kengayishiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlagan. Uning fikricha, moliyaviy himoya xizmatlari investitsiya



oqimlarini barqarorlashtiradi va kichik hamda o'rta biznesning iqtisodiy sharoitdagi o'zgarishlarga nisbatan sezgirlikni kamaytiradi.

Sug'urta va risklarni boshqarish bo'yicha yirik mutaxassislardan biri bo'lgan Mark J. Browne tadbirkorlik faoliyati uchun moliyaviy himoya xizmatlarining eng muhim elementi sifatida biznesni uzilishlardan sug'urtalash, mulk va majburiyatlar sug'urtasi hamda kiberxavfsizlik sug'urtalarining o'sayotgan rolini ta'kidlaydi. Browne izlanishlarida moliyaviy himoya paketlari kichik korxonalar uchun nafaqat moliyaviy yo'qotishlarni qoplash, balki investitsiya faolligini oshirish instrumenti sifatida ishlashini asoslashga urinadi.

OECD ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kredit kafolat fondlari va davlat tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi alohida ta'kidlangan. Ularning xulosalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kredit kafolat fondlari kichik tadbirkorlikni moliyalashtirish hajmini ikki barobar oshirgan va xatarlarni kamaytirish orqali bank sektorining ushbu segmentga kirish motivatsiyasini kuchaytirgan.

Yevropa Ittifoqining Enterprise Risk Management bo'yicha tadqiqotlarida moliyaviy himoya xizmatlarining asosiy yo'nalishlari sifatida sug'urta, davlat kafolatlari, grantlar, likvidlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va kiberxavfsizlik himoyasi ko'riladi. Ushbu ishlanmalar tadbirkorlik subyektlarining bozor tebranishlari, valyuta xavfi, inflyatsiya hamda tabiiy ofatlar kabi xavflarga chidamliligini kuchaytirishning institutsional yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

O'zbekiston sharoitiga yaqin tadqiqotlarda R. Xakimov va A. Shodmonov mahalliy tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy himoya xizmatlari sust rivojlanganini, kredit kafolat fondlari va biznes risklarini sug'urtalash mexanizmlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri moliyaviy himoya vositalarining qamrov va sifati bilan bevosita bog'liq.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar moliyaviy himoya xizmatlarini yanada samarali tashkil etish uchun institutsional muvofiqlashtirish, risklarni diversifikatsiya qilish, davlat kafolati tizimlarini rivojlantirish, sug'urta bozorini modernizatsiya qilish va kichik biznes uchun maxsus moliyaviy himoya paketlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Global va milliy tadqiqotlar xulosalari shuni tasdiqlaydiki, moliyaviy himoya mexanizmlarini takomillashtirish tadbirkorlik subyektlarining barqarorligi, investitsiya faolligi va moliyaviy xavfga chidamliligini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan moliyaviy himoya xizmatlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish uchun ilmiy maqolalar, OECD va Jahon banki hisobotlari hamda O'zbekistonning normativ-huquqiy hujjatlari tahlilidan foydalanadi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, kontent tahlili va iqtisodiy-indikatorli baholash usullari orqali tahlil qilinib, mavjud muammolar va samaradorlik omillari aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta faoliyatida talab darajasidagi risk transferining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek uni ilmiy asosda o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa iqtisodiyot subyektlarining erkinliklari kengayib borayotgani, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ning yangi turlarini o'zlashtirilayotgani sug'urta faoliyatida risk transferining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda.

Mamlakatimizda bosqichma-bosqich bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot subyektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi va erkinligi ortib borayotgan jarayonda doimo risklarning mavjudligi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan va takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos maxsus xizmat ko'rsatish bilan sug'urta shug'ullanadi. Shu sababli bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini ko'zlagan holda, ularni kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlardan himoyalash maqsadida bir qator islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son'li qarori qabul qilindi [3].

"Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi"². [7]

2024-yil holatiga ko'ra O'zbekiston sug'urta bozorida 37 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Sug'urta kompaniyalari tomonidan aholi va tadbirkorlarga quyidagi xizmatlar ko'rsatilmoqda:

- transport vositalarini sug'urtalash;

1 <https://lex.uz/docs/-6824178>

2 Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.1 b. 3.



- tibbiy sug'urta;
- yuklarni sug'urtalash;
- ipoteka sug'urtasi;
- mol-mulkni sug'urtalash va boshqalar.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qanday bo'lishidan qat'i nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ularning yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoitlar majmuasining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta tashkilotlarining jami mukofotlari 2023-yilda 29 foizga o'sdi va 8,1 trln so'mga yetdi. Shunga qaramay, hayotni ixtiyoriy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari kamaygani ta'sirida jami sug'urta mukofotlarining 2023-yildagi yillik o'sish sur'ati 2022-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 38 foiz bandga pasaydi. Umumiy sug'urta tarmog'idagi ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta mukofotlari eng katta ulushni egallab, 7,1 trln so'mda shakllandi. Shuningdek, umumiy sug'urta mukofotlarining 1,9 trln so'mi qayta sug'urtalash uchun to'lovlar hissasiga to'g'ri keldi (1-jadval; 1-rasm).

1-jadval. O'zbekiston sug'urta bozorining tuzilishi (mln.so'mda)

	2023	2022	O'zgarish
Sug'urta tashkilotlari soni	42	41	-2,4%
shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha	8	8	0%
Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so'mda)	1 784622	2 124918	+19,1%
Sug'urta brokerlari soni	6	7	+16,7%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug'urta agentlari soni	8 788	5 207	-40,7%
shu jumladan yuridik shaxslar	2 485	1 655	-33,4%
To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlarining soni	25	25	0%



1-rasm. Sug'urta tashkilotlarining choraklik sug'urta to'lovlari va mukofotlari, (trln so'm) 1-grafik³

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotlarining to'lovlari kamayish tendensiyasiga ega bo'ldi. Hayotni ixtiyoriy sug'urta qilishdagi sug'urta to'lovlarning keskin kamayishi natijasida 2023-yilda

3 Manba: Istiqbolli loyihalar milliy agentligi.



jami sug'urta to'lovlari 22 foizga pasayib, 2 trln so'mni tashkil etdi. Sug'urta to'lovlari asosan umumiy sug'urta tarmog'idagi ixtiyoriy sug'urta shakliga to'g'ri kelib, jami sug'urta to'lovlarning 66 foizini tashkil etdi.

Sug'urta sohasi iqtisodiyotning bazaviy tizimlaridan biri sifatida shakllanayotgan jarayonda uning institutsional asoslarini yanada takomillashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday darajaga erishish uchun sug'urtani tashkil etishning asosiy shakllari — tijoratga asoslangan sug'urta va o'zaro sug'urta mexanizmlarini izchil rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi [8]. Bugungi kunda o'zaro sug'urta ko'plab mamlakatlarda milliy bozorlar miqyosidan chiqib, xalqaro darajada samarali faoliyat yuritayotganini inobatga olgan holda, mazkur modelning O'zbekistonda ham institutsional rivojlanishi uchun qo'shimcha normativ-huquqiy sharoitlar yaratish istiqbolli yo'nalish sifatida ko'rilmog'da. Shu maqsadda ishlab chiqilgan alohida Qonun loyihasining kelgusida parlament muhokamasiga chiqarilishi ushbu yo'nalishning huquqiy bazasini mustahkamlash imkonini beradi.

AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi davlatlari va boshqa hududlarda qishloq xo'jaligini o'zaro sug'urtalash jamiyatlari orqali sug'urtalash bo'yicha to'plangan tajriba O'zbekiston uchun metodik ahamiyatga ega. Masalan, Kanadada ikki yuz yildan ortiq shakllangan tizim uch bosqichli tuzilma — lokal o'zaro sug'urtalash jamiyatlari, ularning uyushmalari va uyushmalar ittifoqi shaklida tashkil etilgan. Ushbu modelda fermerlarning o'zlari sug'urtalovchi hamda sug'urtalanuvchi sifatida qatnashishi, ular o'rtasida mas'uliyatning teng taqsimlanishi, shaffof ma'lumot aylanishi hamda xarajatlarning maqbulligi ta'minlangan [9]. Bunday amaliyot mahalliy sharoitda ham o'zaro sug'urtaga doir mexanizmlarni ishlab chiqishda konseptual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'zbekistonda sug'urta bozorining keyingi taraqqiyoti uchun aholining sug'urta xizmatlariga nisbatan ishonchini mustahkamlash, ayniqsa sug'urta hodisasi yuz berganda zararni qoplash jarayonlarini yanada soddalashtirish bo'yicha metodik yondashuvlarni kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Amaldagi shartnomaviy mexanizmlarni takomillashtirish, ularni sug'urtalanuvchilar manfaatlariga nisbatan yanada moslashtirish hamda qoplama jarayonida vaqtinchalik kechikishlarning oldini oluvchi standart protseduralarni joriy etish kelgusida bozor ishonchligini oshirishga xizmat qiladi. Shu yo'nalishda yagona talablarga asoslangan shaffof standartlar, elektron monitoring tizimlari va avtomatlashtirilgan verifikatsiya mexanizmlarini joriy etish bozorning samarali ishlashini ta'minlaydi va sug'urta tizimining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sug'urta bozorini barqaror rivojlantirish quyidagilarga yo'naltirilgan:

- tavakkalchilikni kamaytirish;
- innovatsion yechimlarni rivojlantirish;
- biznes faoliyatini yaxshilash;
- sug'urtalovchilarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligiga ko'maklashish.

Sug'urta bozorining asosiy vazifasi tavakkalchiliklarni tushunish, ularni boshqarish va zimmaga olishdan iborat.

Sug'urta bozorida barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida rivojlantirishning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

- sug'urta bozori subyektlari aktivlarining sifatini oshirish zarurati;
- sug'urtalovchilarning barqarorligini ta'minlash;
- sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish, xususan sug'urta bozori subyektlari uchun Solvency II konsepsiyasi doirasida tavakkalchilikka asoslangan nazorat yondashuvlariga mos miqdoriy normativlar va sifat talablarini joriy etish orqali ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ko'rsatkichlar O'zbekiston sug'urta bozorining izchil rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, aholining barcha qatlamlarida sug'urtaga oid bilim va ishonchning to'liq shakllanishi uchun qo'shimcha amaliy va metodik choralar zarurligi sezilmoqda. Ayniqsa, sug'urta faoliyatiga oid ma'lumotlarning ayrim hududlarga yetib borish jarayonini takomillashtirish, axborot oqimini yanada tizimli tashkil etish bozorning kelgusidagi o'sish sur'atlarini yuksaltirish imkonini beradi. Bunday yondashuv sug'urta xizmatlarining YAIMdagi ulushi oshishiga, kompaniyalar moliyaviy barqarorligining mustahkamlanishiga hamda raqobatbardosh xizmatlar taklif etilishiga xizmat qiladi.

Kelgusida sug'urta kompaniyalarining bozorni chuqur o'rganib, iste'molchilar talabining qaysi mahsulotlarga yo'naltirilganini aniqlashi va shu asosda innovatsion sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishi xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytiradi. Sug'urta bo'yicha ma'lumotlarni olish jarayonini soddalashtirish, internet-reklama imkoniyatlaridan faol foydalanish hamda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bozorning samarali ishlashiga muhim hissa qo'shadi.

Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida har qanday joydan va istalgan vaqtda sug'urta polislariga to'lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi "Click insurance" kabi virtual to'lov tizimlarini keng joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Hozirda mazkur xizmat "Uzagrosug'urta" AJ tomonidan qo'llanilayotgani amaliy natija



berayotgani ko'rinmoqda, uni boshqa sug'urta kompaniyalarida ham joriy etish mijozlar uchun sezilarli qulaylik, kompaniyalar uchun esa xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi.

Sug'urta polislarini sotish jarayonida brokerlar ishtirokini kengaytirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu bozorda raqobatning oshishi va professional vositachilik xizmatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. 2019–2021-yillarda polislarining 94 foizining agentlar va to'g'ridan-to'g'ri sotuv orqali amalga oshirilgani, internet imkoniyatlari kengaygani sari onlayn sotuv ulushining ortib borayotganini ko'rsatadi. Kelgusida raqamli platformalar va onlayn sotuv mexanizmlarini yanada takomillashtirish sug'urta xizmatlariga kirish imkonini sezilarli kengaytiradi hamda bozorning raqamli transformatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari bilan O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar natijasida bugungi kunda sug'urta bozori jadal rivojlanmoqda.

2025-yilning dastlabki yarmida O'zbekiston sug'urta bozori sezilarli sur'atlarda o'sdi. Istiqbolli loyihalar milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan bozor 46 foizga oshgan. Umumiy sug'urta segmenti bozorning 94 foizini tashkil etayotgan bir paytda, hayotni sug'urtalash 384,22 mlrd so'mga yetib, 385 foizdan ziyod o'sish qayd etdi. Shu bilan birga, hayot sug'urtasi ulushi 6,16 foizni tashkil qildi.

Umumiy sug'urta segmentida yig'ilgan mukofotlar 5,85 trln so'mni tashkil etib, 39,6 foizga oshdi. Eng katta sur'at esa hayotni sug'urtalashda kuzatildi: mukofotlar 384,22 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan qariyb to'rt barobar ko'paydi.

Shu bilan birga, yangi hisobot davrida sug'urta to'lovlari ham o'sdi. Jami to'lovlar 1,24 trln so'mni tashkil etib, 11,6 foizga ko'paydi. Umumiy sug'urta segmentida to'lovlar 1,18 trln so'mga yetgan bo'lsa, hayotni sug'urtalash bo'yicha to'lovlar 64,46 mlrd so'mgacha pasaydi.

Iyun yakuniga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining jami majburiyatlari 2,98 kvadrillion so'mga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 45 foiz ko'pdir. Sektordagi investitsiyalar 8,34 trln so'mdan oshib, asosan depozitlar (60,9 foiz), qimmatli qog'ozlar (16,7 foiz) va ko'chmas mulkka (18,7 foiz) yo'naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Қонуни, 23.11.2021 йилдаги ЎРҚ-730-сон
2. Иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштириш - энг муҳим вазифамиз. Президент И.Каримовнинг 1999 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2000 йилда иқтисодиётни эркинлаштириш ва ислохотларни чуқурлаштиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси.// «Халқ сўзи» газетаси, 2000 йил, 16 февраль.
3. Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантиришнинг комплекс чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 01.03.2024 йилдаги ПҚ-108-сон
4. Баратова Динара Алишеровна –“Ўзбекистонда суғурта бозорининг ривожланиш кўрсаткичлари ва аҳолига хизмат кўрсатишдаги ўрни”; “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил
5. Х.М.Шеннаев, И.К.Очилов С.Э.Ширинов, И.Ф.Кенжаев-“Суғурта иши “ -ўқув қўлланма,Тошкент “Иқтисод-молия” 2013
6. Ғаниева Н. А. и др. Тўқимачилик ва енгил саноат корхоналарига банк хизмати кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 675-679.
7. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered 8. Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.1 b. 3. Страховое дело//Москва, Анкил, 2015 й. 7-сон
8. Логвинова И.Л. Взаимное страхование в России: особенности эволюции. //Финансы и статистика, 2017. №2
9. <http://www.ziyounet.uz>.
10. <https://namstat.uz/uz/> маълумотлари.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
